

**JURNAL, RADIO VA TELEVIDENIYE RIVOJIDA MEDIA
TEKNOLOGIYALARNING O'RNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19186298>

Mavlonov Anvar Uktamovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti boshlang 'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi (+998909447699)

Annotatsiya

Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalarining asosiy turlari - jurnal, radio va televideniyaning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning jamiyat hayotidagi o'rni ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilinadi. Har bir axborot vositasining texnologik asoslari, tarixiy taraqqiyoti va tasnifiy xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *ommaviy axborot vositalari, jurnal, radio, televideniye, davriy nashr, elektromagnit to'lqin, elektron televideniye.*

Аннотация

В данной статье представлен научно-методологический анализ основных типов средств массовой информации – журналов, радио и телевидения, их происхождения, этапов развития и роли в обществе. Рассмотрены технологические основы, историческое развитие и классификационные особенности каждого вида СМИ.

Ключевые слова: *средства массовой информации, журнал, радио, телевидение, периодическое издание, электромагнитная волна, электронное телевидение.*

Abstract

This article provides a scientific and methodological analysis of the main types of mass media-magazines, radio and television, their origins, stages of development, and their role in society. The technological foundations, historical development, and classification features of each media are covered.

Keywords: *mass media, magazine, radio, television, periodical, electromagnetic wave, electronic television.*

Ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib, axborotni keng ommaga yetkazish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va madaniy-ma'rifiy taraqqiyotni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. OAVning tarixiy rivojlanish jarayoni texnik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bosma nashrlardan boshlab radio va televideniye gacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi.

“Jurnal” atamasi fransuzcha *journal* so'zidan olingan bo'lib, bosma davriy nashr ma'nosini anglatadi. Jurnal – bu, doimiy ruknlarga ega bo'lgan hamda ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ishlab chiqarish, madaniy va adabiy-badiiy yo'nalishdagi maqolalar, referatlar va asarlarni o'z ichiga oluvchi davriy nashrdir[3].

Jurnallar quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi:

1. **Davriyligi bo'yicha** – haftalik, oylik yoki ikki oyda bir marta chiqadigan jurnallar (kundalik jurnal nashri mavjud emas).

2. **Format bo'yicha** – hajmi, dizayni va bosma shakliga ko'ra.

3. **Tematikasi bo'yicha** – ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, adabiy, bolalar, texnik, tibbiy va boshqalar.

4. **Ma'lumot berish uslubi bo'yicha** – ilmiy, ilmiy-ommabop, publitsistik yoki badiiy yo'nalishda.

Jurnal bosma OAV sifatida chuqur tahliliy materiallar berish imkoniyati bilan ajralib turadi va o'z auditoriyasiga tizimli, asoslangan axborot taqdim etadi.

Radio (lotincha *radio* – “nurlayman”, *radius* – “nur”) elektromagnit to'lqinlar yordamida ma'lumotni simsiz uzatish texnologiyasidir. Radioaloqaning nazariy va amaliy asoslari XIX asr oxirida shakllandi[2].

1895-yilda A.S.Popov tomonidan amaliy radioqabul qiluvchi qurilmaning yaratilishi radio ixtirosining boshlanishi bo'ldi. Ushbu ixtiro axborotni uzoq masofalarga tezkor yetkazish imkonini berdi.

Radio hozirgi kungacha eng arzon va keng tarqalgan OAV turi bo'lib qolmoqda. Radioto'lqinlar deyarli yer yuzining barcha hududlariga yetib boradi. Bugungi kunda dunyoda 35 000 dan ortiq radiostansiya faoliyat yuritishi radioning ommaviyligini ko'rsatadi.

Radio tezkorlik, keng qamrov, texnik jihatdan nisbatan soddalik, moliyaviy tejamkorlik kabi afzalliklarga ega[5].

Shu sababli radio uzoq vaqt davomida asosiy axborot manbalaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Televideniye (yunoncha *tele* – “uzoqqa”, lotincha *video* – “ko'raman”) – masofadan turib harakatlanuvchi tasvir va tovushni uzatish va qabul qilish tizimidir. Televideniye radioaloqa, elektronika va optika fanlari rivoji asosida shakllangan.

1907-yilda Boris Rozing elektron nurlik trubka yordamida tasvir olish mumkinligini nazariy jihatdan isbotladi. Ushbu trubka avval nemis fizigi K.Braun tomonidan ishlab chiqilgan edi. Rozing tasvirni harakatsiz nuqta ko'rinishida olishga muvaffaq bo'ldi.

1933-yilda rus emigranti Vladimir Zvorikin AQShda ikonoskop-uzatuvchi elektron trubkani namoyish etdi. U odatda elektron televideniye asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Shu davrda sovet olimi S.Kataev ham mustaqil ravishda uzatuvchi trubka yaratdi.

1936-yil oxirida Zvorikin boshchiligidagi RCA laboratoriyasida amaliy qo'llash uchun mos bo'lgan birinchi elektron televizor ishlab chiqildi. 1939-yilda esa RCA ommaviy ishlab chiqarishga mo'ljallangan RCS TT-5 modelini taqdim etdi. Ushbu televizor 5 dyuymli ekran va yog'och korpusga ega edi.

Sovet Ittifoqida birinchi teleefir 1931-yil 29-aprel kuni amalga oshirilgan. 1931-yil 1-oktabrdan boshlab teleko'rsatuvlar muntazam uzatila boshlandi. Dastlab televizor qurilmalari keng tarqalmaganligi sababli ko'rsatuvlar maxsus joylarda jamoaviy tarzda tomosha qilingan[1].

1934-yil 15-noyabrda birinchi ovozli teleko'rsatuv efirga uzatildi. Uzoq vaqt davomida faqat bitta kanal - birinchi dastur faoliyat yuritgan. Ikkinchi jahon urushi davrida teleefir to'xtatilgan va urushdan so'ng qayta tiklangan. 1960-yilda ikkinchi dastur ishga tushirilgan[5].

Jurnal, radio va televideniye ommaviy axborot vositalarining tarixiy rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi. Jurnal – bosma tahliliy axborot manbai, radio – tezkor va keng qamrovli aloqa vositasi, televideniye esa tasvir va tovushni uyg'unlashtirgan eng ta'sirchan OAV turi sifatida shakllandi.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Texnologik taraqqiyot natijasida ushbu vositalar takomillashib bordi va bugungi kunda raqamli media tizimlarining asosini tashkil etmoqda. Ularning rivojlanish tarixi insoniyatning axborotga bo'lgan ehtiyoji va ilmiy-texnik taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Jurnal, radio va televideniyaning talabalar didaktik tarbiyasiga ta'siri juda katta bo'lib, **jurnal** talabalar tafakkurini rivojlantiradi, mustaqil o'qish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ilmiy va ma'rifiy maqolalar ularning dunyoqarashini kengaytiradi. **Radio** eshitish madaniyatini oshiradi, nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ma'rifiy eshittirishlar bilimni mustahkamlashga yordam beradi. **Televideniye** esa ko'rgazmalilik tamoyili asosida bilimni oson va qiziqarli shaklda yetkazadi. Ta'limiy dasturlar talabalarning tasavvurini boyitadi va motivatsiyasini oshiradi[4].

Ommaviy axborot vositalari jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib, ularning har biri talabalarning didaktik tarbiyasida o'ziga xos o'rin tutadi. To'g'ri va maqsadli foydalanilganda, jurnal, radio va televideniye yosh avlodning bilim saviyasi, dunyoqarashi va ma'naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva M. Pedagogik mahorat va didaktik madaniyat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
2. Qosimov B. O'zbek matbuoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
3. Rasulov A. Zamonaviy jurnalistika va raqamli media. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
4. Sultonov Sh. Pedagog kadrlar tayyorlashda axborot resurslaridan foydalanish. – Toshkent, 2019.
5. To'xtayev A., Saidov M. Jurnalistika asoslari. – Toshkent: Universitet, 2012.
6. Xolmirzayev N. Ommaviy axborot vositalari va jamiyat. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni.